

## **Nazariya va amaliyot chambarchasligida ilmning o'rni**

2021-yil 9-iyul kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti Buxoro filiali "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" mutaxassisligi 1-bosqich doktoranti Nurov Dilmurod Elmurodovichning "Suv tanqisligi sharoitida g'o'zani tomchilatib sug'orish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish" (Buxoro viloyati misolda) PhD doktorlik dissertatsiyasi mavzusidagi ilmiy tadqiqot obekti bo'lgan Buxoro viloyati Vobkent tumanining "Said Imom Tilav" fermer xo'jaligiga, professor Matyakubov Baxtiyar Shamuratovich tashrif buyurdi. Tashrif jarayonida fermer xo'jaligi raisi Imomov Odil bilan uchrashildi.



Tadqiqotchi tomonidan dastur asosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan kuzatildi. Tadqiqot olib tajriba tizimi bo'yicha variant va takrorlanishlarni joylashtirishi bilan tanishildi. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda kuzatilgan xato va kamchiliklar, muammolar bo'yicha taklif va maslahatlar berildi. Ayniqsa vilt kasalligi va fermer xo'jaligining sho'rangan qismlarida g'o'zaning qurib qolish sabablari to'g'risida fikr va xulosalar berib o'tildi. Shuning bilan birga g'o'zani tomchilatib sug'orishdagi muammolardan biri begona o'tlar ko'payishini oldini olish bo'yicha fermerga va tadqotchiga aniq tavsiyalar berildi.



Fermerga dalada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab quvvatlayotganligi uchun prof. Matyakubov B.Sh, o'z minatdorchiligini bildirib o'tdi. Hamda kelgusida yil davomida dala sharoitida bajariladigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha tavsiyalarni yetkazib berishi hamda kelgusida ilmiy tadqiqotlar natijasini boshqa fermerlarga yetkazish kerakligi ta'kidlab o'tildi. Fermer hamda uning ishchilari va doktorant D.Nurov bilan dala tadqiqotlari bo'yicha olib borilgan kuzatuvar yuzasidan tashrif munozaralarga boy va qiziqarli ravishda o'tdi. Shuni ham ta'kidlash joyizki bunday amaliy tomonidan joyda bajarilayotgan ITIlar yuzasidan Fermer-Doktorant-Ilmiy rahbar hamkorligi katta imkoniyatlar poydevoridir.



**TIQXMMI matbuot xizmati**